



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJONVILOYATI BULOQBOSHI TUMANI HOKIMINING QARORI

Buloqboshi t, Mirzakalon Ismoiliy ko‘cnasi 6-uy

2022 - yil 14 - may

109-1-20-Q/22

Buloqboshi tuman hokimligi

Buloqboshi tumani, “Sanoat” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan, P170321000690-32-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan, tuman hokimligi zahirasidagi mavjud yer uchastkasini auksionga chiqarish uchun kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14 fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 71-sonli qarorini, Andijon viloyati madaniy me‘ros boshqarmasining, Buloqboshi tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limining, Buloqboshi tuman Ekologiya bo‘limining va tuman IIB YHXBning xulosalarni, “O‘zGAShKLITI” MChJ ning topografik xaritasini hamda Davlat kadastrlari palatasi Andijon viloyat boshqarmasining Buloqboshi tuman filialining kadastr yig‘ma jildini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Buloqboshi tumani, “Sanoat” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan, P170321000690-32-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan, 32 metr kvadrat bo‘sh yer maydoni tuman hokimligi zahirasida ekanligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
2. Davlat kadastrlari palatasi Andijon viloyat boshqarmasi (D.Akbarov)dan, mazkur zahiradagi yer maydonini davlat mulki sifatida Buloqboshi tuman hokimligi nomiga davlat ro‘yxatidan o‘tkazib berish so‘ralsin.
3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari

B.Buvamatov va tuman hokimining o'rinbosari R.Madraximov zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими



О`Мамуров